

+998 555 100 300
WWW.UZSE.UZ

100170, O'ZBEKISTON, TOSHKENT,
MUSTAQILLIK 107



TOSHKENT
RESPUBLIKA FOND BIRJASI

PRESS - RELIZ

**MART
2026**



MUNDARIJA

SAVDO YAKUNLARI	3
BIRJA SAVDOLARI	4
Birja savdolari sharhi	5
Birja bozorlari va maydonchalari sharhi	6
Emitentlarning bozor kapitalizatsiyasi	7
UCI indeksi	8
Narxlar o'zgarishi	8
Main Board bo'yicha Top-10 aksiyalar	11
Obligatsiyalar bozori	12
Tarmoqlar tuzilmasi	13
Birja kotirovkalash varag'i	14
LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONCHASI	16
LTSM savdolari sharhi	17
Main Board bo'yicha LTSM Top-10 aksiyalar	19
DISKLEYMER	21

SAVDO YAKUNLARI

63 950

Bitimlar soni

639,49 mlrd so'm

Savdolar hajmi

7,81 mlrd

*Savdoda ishtirok etgan
qimmatli qog'ozlar*

19 kun

Savdo kunlari

229

*Savdo qilingan
instrumentlar soni*

192

*Savdoda ishtirok etgan
emitentlar soni*

**MART
2026**



TOSHKENT
RESPUBLIKA FOND BIRJASI

BIRJA SAVDOLARI

BIRJA SAVDOLARI SHARHI

Mart oyi davomida "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan 65 ta emitent tomonidan chiqarilgan 7,62 mlrd dona qimmatli qog'ozlar bilan 552,72 mlrd so'mlik (45,31 mln AQSH dollarlik) 52 513 ta bitim tuzildi. Savdolarida jami 6 408 nafar investorlar ishtirok etishdi.


Eng katta bitimlar hajmi 31-mart kuni qayd etilgan bo'lib, u 300,49 mlrd so'mga teng bo'lgan va ushbu oydagi jami bitimlarning 54,37 foizini tashkil etdi. O'sha kuni eng katta hajm "UzMRC" AJ /IQMK5B8/ obligatsiyalari bilan bog'liq bo'lib, umumiy qiymati 300,00 mlrd so'mlik bitimlar tuzildi va bu 31-mart kuni tuzilgan bitimlarning 99,84 foizini tashkil etdi.

Eng kam bitimlar hajmi 26-mart kuni qayd etilib, jami 609,00 mln so'mlik 2 607 ta bitim amalga oshirildi.

Mart oyida birja kotirovkalash varag'i qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlarning o'rtacha kunlik soni 2 764 ta, savdolarining o'rtacha kunlik hajmi esa 29,09 mlrd so'mni tashkil etdi.

Tuzilgan bitimlar hajmi va soni o'tgan oyga nisbatan taqqoslanganda, ular mos ravishda 2,66 foiz va 61,95 foizga kamaygan.

MART OYIDAGI SAVDOLAR HAJMI VA BITIMLAR SONI



BIRJA BOZORLARI VA MAYDONCHALARI SHARHI

Eng ko'p bitimlar "Stock Market"ga to'g'ri kelib, 58 ta emitent bo'yicha umumiy hajmi 220,31 mlrd so'm (18,08 mln AQSh dollari) bo'lgan 50 421 ta bitim amalga oshirildi.

Eng katta savdo hajmi "Bond Market"da shakllanib, 2 092 ta bitim bilan 332,41 mlrd so'm (27,23 mln AQSh dollari)ni tashkil etdi.

Nº	Savdo tizimi bo'limlari	Emitentlar soni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Bitimlar hajmi (so'm)
I.	«Stock Market»:	58	50 421	7 616 545 489	220 313 774 991,56
1.	G1 - «Main Board»	55	50 415	4 155 593 464	24 992 860 535,07
2.	T1 - «Nego Board»	5	6	3 460 952 025	195 320 914 456,49
II.	«Bond Market»	7	2 092	437 920	332 407 777 457,0
1.	G1 - «Main Board»	7	2 092	437 920	332 407 777 457,01
Jami		65	52 513	7 616 983 409	552 721 552 448,57

AKSIYALAR BOZORI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

		2022	2023	2024	2025	2026
Savdolar hajmi	mln so'm	24 164	90 923	60 233	49 036	220 314
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	1 272	4 330	3 346	2 724	11 595
Bitta bitim o'rtacha hajmi	mln so'm	4	6	2	2	4
Bitimlar soni	dona	5 801	16 473	38 680	30 633	50 421
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	305	784	2 149	1 702	2 654

EMITENTLARNING BOZOR KAPITALIZATSIYASI


Aksiyalarning bozor kapitalizatsiyasi 18,26 trln so'mga yoki 5,67 foizga oshib, 339,94 trln so'm (27,84 mlrd AQSh dollari)ni tashkil etdi. Erkin muomalada bo'lgan aksiyalarning bozor kapitalizatsiyasi (free-float) esa 6,09 trln so'm (498,39 mln AQSh dollari)ni tashkil qildi.

Oy yakuniga ko'ra, Birjaning kotirovkalash varag'ida 83 ta emitentning oddiy aksiyalari mavjud edi.

UCI INDEKSI

Oy yakunlariga ko'ra, UCI indeksi 5,68 foizga oshib, 891,40 punkt darajasida yopildi.

2026-YIL MART OYIDAGI UCI INDEKSI GRAFIGI



Indeksning maksimal qiymati 17-mart kuni qayd etilib, 926,82 punktga yetdi. Indeksning oy davomidagi minimal qiymati 2-mart kuni qayd etilib, 838,37 punktni tashkil etdi.

NARXLARNING O'ZGARISHI

Oy davomida aksiyalar narxining o'zgarishi – 5,17 foizdan 264,80 foizgacha bo'lgan oraliqda kuzatildi.

Kotirovkalarning eng katta o'sishi "Buxoroneftgazparmalash" AJ /BNGPP/ va "Neft va gaz quduqlarini sinash" AJ /NGQS/ aksiyalariga to'g'ri kelib, ularning aksiyalari narxi mos ravishda 45 600,00 so'm va 18 000,00 so'm darajasigacha oshdi.

Tiker	Emitent	Yopilish narxi 31.03.2026	Yopilish narxi 27.02.2026	O'zgarish %
BNGPP	AJ "Buxoroneftgazpirmalash"	45 600,00	12 500,01	264,80%
NGQS	AJ "Neft va gaz quduqlarini sinash"	18 000,00	6 400,00	181,25%
KVTS	AJ "Kvarts"	2 700,00	1 316,00	105,17%
UZMKP	AJ "O'zmetkombinat"	4 304,00	2 150,00	100,19%
IPTB	ATIB "Ipoteka-bank"	3,81	2,07	84,06%
SQBNP	ATB "O'zsanoatqurilishbank"	83,48	54	54,59%
IPTBP	ATIB "Ipoteka-bank"	11,06	7,23	52,97%
UQEQ	AJ "O'zQEQ"	35 000,00	23 000,00	52,17%
QZSM	AJ "Qizilqumsement"	1 490,02	1 022,99	45,65%
UPOSP	AJ "O'zbekiston pochta"	60 500,62	43 200,01	40,05%


Shu bilan birga, "Sarbon-Neftegaz" AJ /SANE/ va "O'zagrosug'urta" AJ /UZASP/ aksiyalari eng katta pasayishni ko'rsatib, hisobot davrini mos ravishda 9 350,00 so'm va 13 600,00 so'm darajasida yakunladi.

Tiker	Emitent	Yopilish narxi 31.03.2026	Yopilish narxi 27.02.2026	O'zgarish %
SANE	AJ "Sarbon-Neftegaz"	9 350,00	14 400,00	-35,07%
UZASP	AJ "O'zagrosug'urta"	13 600,00	17 000,00	-20,00%
TGPG	AJ "Tashgiprogor"	50 000,00	62 400,00	-19,87%
TRSBP	XAB "Trastbank"	250 000,00	300 000,00	-16,67%
UZHМ	AJ "O'zbekkimyomash zavodi"	3 800,00	4 300,00	-11,63%
UNVB	AJ "Universal bank"	9 997,00	11 111,00	-10,03%
KSCM	AJ "Quvasoycement"	90 000,00	99 999,99	-10,00%
PLST	AJ "Portlatishsanoat"	20 009,94	22 000,00	-9,05%
UPOS	AJ "O'zbekiston pochtaasi"	14 500,00	15 500,00	-6,45%
MCBAP	ATB "Mikrokreditbank"	12 049,99	11 000,00	-5,71%

MAIN BOARD BO'YICHA TOP-10 AKSIYALAR


2026-yil mart oyi yakunlari bo'yicha G1 - "Main Board" aksiyalar bozorining asosiy savdo maydonchasida jami 24 992,86 mln so'mlik 50 415 ta bitim tuzildi.

BITIMLAR SONI BO'YICHA TOP 10



Hisobot davrida eng ko'p bitimlar "O'zRTXB" AJ /URTS/ va "Hamkorbank" ATB /HMKB/ qimmatli qog'ozlari bilan mos ravishda 4 668 ta va 3 321 ta bitim tuzildi. Top-10 ro'yxatini "O'zsanoatqurilishbank" ATB /SQBNP/ va "O'zbekinvest" AJ /UZINP/ imtiyozli aksiyalari yakunlab, ular bo'yicha 2 066 ta va 1 897 ta bitim qayd etildi.

SAVDO HAJMI BO'YICHA TOP-10, MLN SO'M



Eng yuqori hajm "O'zRTXB" AJ /URTS/ va "O'zsanoatqurilishbank" ATB /SQBN/ aksiyalari bilan mos ravishda 10 675,28 mln so'm va 6 318,91 mln so'mni tashkil etdi. Shu bilan birga, "Main Board" savdo maydonchasida qimmatli qog'ozlari sotilgan Top-10 emitentning umumiy hajmi 23 363,08 mln so'mni yoki aksiyalar bozoridagi umumiy savdo hajmining 93,48 foizni tashkil etdi.

OBLIGATSIYALAR BOZORI


Hisobot davri oxirida "Bond Market" obligatsiyalar bozorida umumiy qiymati 332,41 mlrd so'mlik (27,23 mln AQSH dollarlik) 2 092 ta bitim amalga oshirildi. Eng yuqori savdo hajmi 31-mart kuni qayd etilib, 300,06 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shu kuni "Bond Market"ning "Main Board" asosiy maydonchasida "UzMRC" AJ obligatsiyalari /IQMK5B8/ bilan 300,00 mlrd so'mlik 5 ta bitim tuzildi. Ushbu obligatsiyalar bo'yicha savdolar umumiy hajmning 90,25 foizni tashkil etdi.

Obligatsiyalar bozor qiymati 270,19 mlrd so'mga (+7,10%) oshib, 4,08 trln so'm (333,92 mln AQSH dollar)ga yetdi. Instrumentlar soni 30 tani tashkil qildi.

Hisobot davrida "AGAT CREDIT" AJning /ACMT1B/ obligatsiyalari so'ndirilgani sababli birja kotirovka varag'idan chiqarildi.

INSTRUMENTLAR BO'YICHA OBLIGATSIYALAR BILAN SAVDOLAR HAJMINING ULUSHI, %



OBLIGATSIYALAR BOZORINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

		2022	2023	2024	2025	2026
Savdolar hajmi	mln so'm	127	565	1 108	207 345	332 408
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	7	27	62	11 519	17 495
Bitta bitim o'rtacha hajmi	mln so'm	42	47	10	708	159
Bitimlar soni	dona	3	12	111	293	2 092
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	0	1	6	16	110

TARMOQ TUZILMASI

Oy davomida "Toshkent" RFBda birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan iqtisodiyotning 13 ta tarmog'i instrumentlari bo'yicha bitimlar tuzildi.

2026-YIL MART OYIDAGI BITIMLAR HAJMI TARMOQLAR KESIMIDA, %



■ Moliyaviy xizmatlar 57,79%
 ■ Sanoat 1,38%
 ■ Sug'urta 0,06%
 ■ Mashinasozlik 0,01%
 ■ Lizing 0,00%

■ Banklar 36,16%
 ■ Qurilish 0,16%
 ■ Energetika 0,04%
 ■ Farmatsevtika 0,01%


■ Boshqalar 4,28%
 ■ Ko'chmas mulk 0,09%
 ■ Transport 0,03%
 ■ Agrosanoat 0,00%

Bitimlarning eng katta hajmi “Moliyaviy xizmatlar” tarmog’iga to’g’ri kelib, 319,40 mlrd so’mlik 2 086 ta bitim tuzildi va bu umumiy hajmning 57,79 foizini tashkil etdi. Shuningdek, “Banklar” hamda “Boshqalar” sohalari keyingi o’rinlarni egallab, ular bo’yicha savdo hajmi mos ravishda 199,84 mlrd so’m va 23,68 mlrd so’mni tashkil etdi. Eng past natija “Lizing” tarmog’ida qayd etilib, 89 ta bitim hajmi 2,06 mln so’mga teng bo’ldi.

Eng ko’p bitimlar “Banklar” tarmog’ida tuzilib, ularning soni 22 041 tani tashkil etdi. Keyingi o’rinlarni “Sug’urta” va “Sanoat” tarmoqlari egallab, mos ravishda 340,12 mln so’mlik 7 764 ta va 7 612,18 mln so’mlik 7 654 ta bitim qayd etildi.

Eng kam bitimlar “Qurilish” va “Lizing” tarmoqlari qimmatli qog’ozlari bo’yicha tuzilib, mos ravishda 157 ta va 89 tani tashkil etdi.


2026-YIL MART OYIDA TARMOQLAR KESIMIDA TUZILGAN BITIMLAR SONI



BIRJA KATIROVKALASH VARAG’I

Oy oxiridagi holatga ko’ra, “Toshkent” RFB birja kotirovkalash varag’ida 94 ta emitentning 151 ta instrumenti mavjud edi.

KATEGORIYA KESIMIDAGI INSTRUMENTLAR SONI:



Shundan:

- 83 - oddiy aksiyalar;
- 38 - imtiyozli aksiyalar;
- 30 - obligatsiyalar.

Hisobot davrida "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" MCHJning /IQMK5B8/ obligatsiyasi birja kotirovkalash varag'iga kiritildi

"Stock Market" aksiyalar bozorida bitimlarning eng katta hajmi va soni "Standart" segmentiga to'g'ri keldi — 202,97 mlrd so'm va 40 226 ta bitim. Eng kam hajm "Xususiylashtirish" segmentida qayd etildi — 276,01 mln so'm (4 048 ta bitim). Eng kam bitimlar soni "Tranzit" segmentida qayd etildi — umumiy qiymati 6,39 mlrd so'mlik 1 479 ta bitim.

"Premium" toifasida faqat bitta emitent — "O'zRTXB" AJ ishtirok etdi: umumiy qiymati 10,68 mlrd so'mlik 4 668 ta bitim tuzildi.

LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI

**MART
2026**

LTSM SAVDOLARI SHARHI

Savdolar hajmi 86,76 mlrd so'm (7,14 mln AQSH dollar)ni tashkil etib, 2026-yilning fevral oyiga nisbatan 106,26 mlrd so'm (-55,05%)ga kamaydi. Savdolarning asosiy hajmi 86,07 mlrd so'm yoki 99,20 foizini — "SME Stock" bozorining "Nego Board" platformasiga to'g'ri keldi.


Savdolarning eng yuqori hajmi 31-martda qayd etilib, 24,53 mlrd so'mni (2,01 mln AQSH dollar) tashkil etdi. Minimal hajm esa 13-martda kuzatilib, 12,17 mln so'm (1 006 AQSH dollar)ni tashkil etdi.

Tuzilgan bitimlarning umumiy soni 11 437 tani tashkil qildi. Bitimlarning maksimal soni 10-martda (911 ta), minimal soni esa 19-martda (391 ta) qayd etildi.


Savdolarning o'rtacha kunlik hajmi 4,57 mlrd so'mni (375,85 ming AQSH dollar), o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 602 tani tashkil etdi.

SAVDOLAR HAJMI

Milliard



SAVDOLAR SONI




LTSM BOZORINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

		2023	2024	2025	2026
Savdolar hajmi	mln so'm	18 100	8 916	550 357	86 764
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	862	495	30 575	4 567
Bitta bitim o'rtacha hajmi	mln so'm	23	2	80	8
Bitimlar soni	dona	793	3 625	6 860	11 437
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	38	201	381	602

LTSM MAIN BOARD BO'YICHA TOP 10 AKSIYALAR

“SME Stock” aksiyalari bozorida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha G1 – “Main Board” maydonidagi aksiyalarning Top-10 ro'yxati.


BITIMLAR SONI BO'YICHA TOP 10



Eng ko'p bitimlar “Uzsanoateksport” AJ /OSNE/ aksiyalari bo'yicha qayd etilib, 1 561 ta bitimni tashkil etdi. Keyingi o'rinlarni “PRESTIGE INSURANCE” AJ /OHMS/ hamda “Regional electrical power networks” AJ /OHETP/ aksiyalari egallab, ular bo'yicha mos ravishda 668 ta va 501 ta bitim tuzildi. Top-10 ro'yxatini “YANGIYO'L YOG'-MOY” AJ /OYGY/ va “Foykon” AJ /OFKN/ aksiyalari mos ravishda 322 ta va 305 ta bitim bilan yakunladi.

Bitimlar hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich “MULK-SARMOYA BROKERLIK UYI” AJ /OMSB/ oddiy aksiyalari hissasiga to'g'ri kelib, 100,28 mln so'mni tashkil etdi. Bu “Main Board” aksiyalar bozoridagi umumiy hajmning 14,38 foizini tashkil qildi. Keyingi o'rinlarni “UZKABEL” AJ /OKBL/ va “TOSHKENTVINO KOMBINATI” AJ /OTVK/ aksiyalari egallab, ular bo'yicha savdo hajmi mos ravishda 97,44 mln so'm va 50,87 mln so'mni tashkil etdi.

SAVDO HAJMIGA KO'RA TOP-10, MLN SO'M



“Daromad Plus” AJ /ODMP/ aksiyalari 21,36 mln so'mlik hajm bilan Top-10 ro'yxatini yakunladi. Savdolar hajmi bo'yicha Top-10 aksiyalarning umumiy summasi 489,69 mln so'mni tashkil etib, umumiy hajmning 70,22 foizini tashkil etdi.

DISKLEYMER

Ushbu tahlilda keltirilgan ma'lumotlar "Toshkent" Respublika fond birjasi AJ (keyingi o'rinlarda "Toshkent" RFB) mutaxassislari tomonidan tayyorlangan. Ushbu tahliliy material faqat ma'lumot uchun mo'ljallangan bo'lib, "Toshkent" RFB va uning xodimlarining hech qaysi biri ushbu sharhdan yoki undagi ma'lumotlardan foydalanish natijasida kelib chiqqan bevosita yoki bilvosita yo'qotishlar (zararlar) uchun javobgar emas.

"Toshkent" RFB investorlarga muayyan investitsiyalar va strategiyalarni maqsadga muvofiqligini mustaqil baholashga chorlaydi va investorlarni litsenziyalangan investitsiya vositachilari xizmatlaridan foydalanishga undaydi.

Ushbu sharh bo'yicha barcha huquqlar "Toshkent" RFBga tegishli. Ushbu tahliliy materialni qisman yoki to'liq ko'paytirish va/yoki tarqatish faqat manbani ko'rsatgan holda amalga oshirilishi shart.

© **"TOSHKENT" RESPUBLIKA FOND BIRJASI AJ**

Birjaviy tahlil "Tahlil va statistika" bo'limi tomonidan tayyorlangan.

Fikr-mulohaza uchun kontaktlar:

E-mail: analytics@uzse.uz

Tel.: +998 555 100 300